



2018 yilning yanvar – mart oylarida QURILISH ISHLARI

Joriy yilning yanvar-mart oylarida O'zbekiston Respublikasida jami 9 259,5 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'sish surati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 112,2 %ni tashkil etdi.

Jami qurilish ishlari hajmidan yirik pudrat tashkilotlari tomonidan 3 596,7 mlrd.so'm qurilish ishlari bajarilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 38,8 % hamda o'tgan yilning mos davriga nisbatan 132,4 %ni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va tashkilotlar, mikrofirmalar hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 39,6 %i yoki 3 665,5 mlrd.so'm to'g'ri keldi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 107,8 %ni tashkil etdi, norasmiy sektor hissasiga esa 21,6 % yoki 1 997,3 mlrd.so'm to'g'ri keldi hamda o'tgan yilning mos davriga nisbatan 98,5 %ni tashkil etdi.


RAQAMLAR:

Qurilish ishlari hajmi -
9 259,5 mlrd.so'm


Yirik qurilish-pudrat
tashkilotlari ulushi -
38,8 %

Kichik korxonalar va
mikrofirmalar ulushi -
39,6 %

Qurilishda norasmiy
sektorning ulushi -
21,6 %



Faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi. Ularning ulushi jami qurilish ishlari hajmida 80,0 %ni tashkil etdi va o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 5,2 % punktga ko'paydi.


Fuqarolik obyektlari qurilishi va ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi joriy davrda 14,0 %ni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 1,8 % punktga kamaydi.

Boshqa pudrat ishlari hissasiga esa 9,4 % to'g'ri keldi hamda o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 3,4 % punktga kamaydi.

Yanvar-mart oylarida qurilish ishlarining faoliyat turlari bo'yicha tarkibi




- Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari
- Fuqarolik qurilishi ob'ektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari
- Boshqa qurilish ishlari



Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi ulushi 39,7 %ni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 10,4 % punktga ko'paydi. Bunda kichik tashkilotlar va mikrofirmalar ulushi 33,8 % (2,9 % punktga kamayish) va norasmiy sektorning ulushi 26,5 %ni (7,4 % punktga kamavish) tashkil etdi.

2018 yil yanvar-martida faoliyat turlari bo'yicha tarkibi
(jamiga nisbatan %da)




Fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish ishlari bo'yicha yirik pudrat tashkilotlarining ulushi 47,1 %ni tashkil etdi va o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 6,8 % punktga ko'paydi. Shuningdek, kichik tashkilotlar va mikrofirmalar ulushi 49,3 % (7,7 % punktga kamayish) va norasmiy sektorning ulushi 3,6 %ni (0,8 % punktga ko'payish) tashkil etdi.

Boshqa qurilish ishlari tarkibida yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 6,6 % punktga kamaydi va 25,1 %ni tashkil etdi. Qolgan 74,9 % kichik tashkilotlar va mikrofirmalarhissasiga to'g'ri kelib o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 6,6 % punktga ko'paydi.


Yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining hududlar bo'yicha tarkibida Toshkent shahri yetakchilik qilmoqda. Ushbu hududda bajarilgan qurilish ishlarining 31,1 %i yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan

Qurilish ishlarining hududlar bo'yicha tarkibi



Yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng kam ulushi Jizzax viloyatida kuzatildi 1,2 %. Bu hududdagi qurilish ishlarining asosiy qismi kichik tashkilotlar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri keladi.

Hududlarda qurilish ishlarining o`shish suratlari (o`tgan yilning mos davriga nisbatan %da)




Qurilish ishlarining hududlar kesimida eng yuqori o`shish surati Toshkent viloyati hamda Qoraqalpog`iston Respublikasida kuzatildi. Ushbu hududlarda yakka tartibda turar joy qurilishining jadal borishi tufayli o`shish surati o`tgan yilning mos davriga nisbatan mos ravishda 133,4 va 119,1 % bo`lishini ta`minladi.

Navoiy viloyatida "Auminso-Amantoy konlari" da oltin-ma'danli konlarni qazib olish va qayta ishlash bo'yicha konlarni qurish (I-II bosqich), Amudaryo-Zarafshon suv yo`lida nasos stansiyasini rekonstruksiya qilish kabi loyihalarning amalga oshirilayotgani tufayli ushbu hududda o`shish suratining 112,0 % bo`lishini ta`minladi.

Toshkent shahridagi yuqori o`shish surati, yani 110,6 % metro liniyalarining qurilishi, Toshkent shahar halqa yo`lida elektro poyezdlar uchun temir yo`l qurilishi va boshqa loyihalarning bajarilishi natijasidir.

Hududlar kesimida qurilish ishlari (mlrd.so`m)



O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi
Investitsiyalar va qurilish statistikasi
boshqarmasi

Nashr uchun mas'ul:
Aloqa telefoni:

J.Saipov
(0371) 230-80-56